

O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asarida konflikt masalasi

Nasimjonova Muxlisabegim Anvarjon qizi

ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs

nasimjonovamuxlisa831@gmail.com +99897 0500460

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan yozuvchi, vatanparvar, oltin qalam sohiblaridan biri O'tkir Hoshimovning badiiy mahoratini, uning so'z qo'llash, asar qahramonlarining xarakterlarini ochib berish va asosiysi, asardagi voqealar rivojiga ko'ra konfliktidan foydalanish mahorati haqida yoritib beradi.

Kalit so'zlar: konflikt, g'azab, urush, korrupsiya, o'lim.

Adabiyot dunyosida "nasrdagi tarona", "nasrdagi shoir" atamaları bor. XX asr yangi o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy haqli ravishda prozaning shoiri deb nom olgan edi. 60-yillar zamonaviy adabiyotida O'tkir Hoshimovni ham nasrdagi shoir, yetuk asarlarini esa nasrdagi qo'shiq, tarona deb atash mumkin.

UMARALI NORMATOV

O'zbekiston Respublikasi fan arbobi,

Filologiya fanlari doktori, professor⁵⁹

O'tkir Hoshimov – 1941-yil 5-avgustida Toshkent shahrining Do'mbirobod mahallasida dunyoga kelgan. Yoshlik yillarida bir muddat pochtada xat tashuvchilik qilgan va shu davrlarda adabiyotga mehr qo'ya boshlagan. 1964-yil Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ga o'qishga kirgan. Shu davrdan boshlab bir qator durdona asarlar yarata boshlagan. Shulardan biri o'zbek romanchiligida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan, 1994-yil yozilgan "Tushda kechgan umrlar" asaridir.

⁵⁹ <https://yuz.uz/uz/news/nasrdagi-shoir-yoxud-ruhiyat-manzillari>



Asar Rustamning kundaligidagi kuz ta'rifi bilan boshlanadi: *“Kuz o`lim to`shagida yotgan bemorga o`xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi... Erta bahordan bo`tana bo`lib, shosha-pisha, qirg`og`iga sig`may oqqan ariqlar tiniqlashadi. Shuncha urinishlari zoye ketganini tushunib, olamga ma'yus boqadi... Endi suv tubida shodon chayqalgan maysalar emas, xazon ko`milib yotadi... Yer-u ko`kni kafandek oppoq tuman chulg`aydi. Oq zulmat orasidan qarg`alarning xosiyatsiz fig`oni eshitiladi.*

...Erta-indin osmonga motam libosini kiygan bulutlar chiqadi. Yer ustida uzoq charx uradida, achchiq-achchiq ko`z yoshi to`kadi. Sim-sim yomg`ir yog`adi: to`rt kunlik umrida dunyoga sig`magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig`laydi...

Men necha yoshga chiqdim o`zi? Yigirma ikkiga?! Yo`g`-e, axir men etmish ikkidaman-ku! Balki sakson ikkidadir? Nima farqi bor?! «Donolar hayotni kuzaturlar jim... »⁶⁰

Albatta, bunga inson umrining tugashi sifatida qarasa ham bo`ladi. Bir tomondan, asar qahramoni bo`lmish Rustamning qiyin hayoti o`quvchini unga bo`lgan hurmatini oshirsada, ikkinchi tomondan uning xarakteri, ya`ni qiziqqonligi ko`pchilikni hayron qoldiradi.

Rustam – asar bosh qahramoni bo`lmish bu yigit jasur, mard va halol. Asardagi hamma voqealar uning kundaligi orqali bayon etiladi. Universitetning ikkinchi kursida tahsil olayotgan vaqtda vatan tinchligi uchun urushga jo`natildi. Vaholanki, urush mamlakat hududidan ancha olisda, Afg`onistonda edi va u yerda qon kechib, qancha qiyinchiliklarni yengib o`tdi. U bilan jang qilgan qancha safdoshlarining o`limlariga guvoh bo`ldi, hatto janglardan birida yaralandi, kerakli muolajalar qilinsa-da, olgan jarohatining asorati uni bir umr tark etmadi, shunga qaramay u yana mardonavor jang qildi va urush tugagach uyga, vataniga qaytdi.

⁶⁰ ТУШДА КЕЧГАН УМРЛАР

(роман)

Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти

Тошкент - 2002



Bu yerda ham uni ko'p muammolar kutayotgan edi. Qaytib kelgach, uyiga bordi. Hamma bilan ko'rishdi, faqat dadasini ko'ra olmadi. Sababi esa oddiy – “qo'shib yozganmish. Pora olganmish”.

Shuncha tashvishlarni ko'rgan bu yigit uylandi va o'qishini qayta tikladi. Uyi va o'qishi orasidagi masofa juda uzoq bo'lganligi, talabalar shaharchasida yashash unga ma'qul bo'lmagani uchun uy olishga harakat qildi.

Konflikt (lot., to'qnashuv) deganda badiiy asar personajlarining o'zaro kurashlari, qahramonning o'z muhiti bilan ziddiyatlari, shuningdek, uning ruhiyatida kechuvchi qarama-qarshiliklar tushuniladi. Badiiy asar voqelikni badiiy aks ettirgani va uning markazida inson obrazi turgani uchun ham insonning real hayotida mavjud konfliktlarning bari unda badiiy aksini topadi. Shu nuqtayi nazardan badiiy konfliktning uchta turi farqlanadi:

1. Xarakterlararo konflikt.
2. Qahramon va muhit konflikti.
3. Ichki (psixologik) konflikt.

Aytish kerakki, konfliktning mazkur turlari badiiy asarda aralash holda namoyon boladi va o'zaro uzviy aloqada bo'ladi: biri ikkinchisiga o'tadi, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi, biri ikkinchisi orqali ifodalanadi va b. Ya'ni qahramonning muhit bilan konflikti uning boshqa personajlar bilan to'qnashuvlari, ruhiyatidagi ziddiyatli jarayonlar tasviri orqali ochib beriladi.⁶¹

Sho'rolar davrida — sotsialistik realizm metodi hukmronlik qilgan davrda konflikt zaminiga ijtimoiy-sinfy antagonizm qo'yilgan va bu ziddiyatning inqilobiy yo'l bilan yechilishi talab qilingan, individual axloq bilan jamoa ongi o'rtasidagi, xususiy mulkchilik ruhiyati bilan jamoat, xalq manfaati o'rtasidagi kurash tarzida qo'yilgan.⁶²

⁶¹ Adabiyot nazariyasi asoslari [Matn]/ D.Quronov. - Toshkent: Akademnashr, 2018. -4 8 0 b.

⁶² Internet



Rustam ko'p harakat qilib shahardan uy ololmadi. Kunlardan bir kun qaynotasinikiga borgan payti shu mavzu ochildi va qaynotasi, Rasulev, unga uy albatta berilishini aytdi. Tashqariga chiqib Dmitriy Stepanovich bilan telefonda gaplashib kelgach, Rustamga indinga uning oldiga borishini aytdi. Natijada Rustam uy oldi. Bu uyni haqiqat qaror topgani uchun, o'z mehnatim bilan oldim deb g'ururlanib yurgan kunlarining birida Shahnoza bilan janjallashib qoldi. Shahnoza uyni Rustamning o'zi olmaganini, dadasi Stepanovichga uy olish uchun "besh ming" berganini aytdi. Janjal natijasida Shahnoza otasining uyiga ketib qoldi. Shu payt Rustam o'zi bilan o'zi qoldi. Mana shu yerda konflikt, ya'ni asar qahramonining o'zi bilan o'zi o'rtasida ichki kurashi hamda jamiyatdagi yo'qotib bo'lmas illatlardan biri bo'lmish korrupsiya asosiy o'ringa chiqadi. Urushga borib kelgan, vatandan uzoqda jang qilsa-da, bu mening burchim emas demasdan, dushman o'qi va o'lim xavfiga tik qaray olgan yigit oldida yana bir kurash – o'zidagi g'azabni yengish uchun kurash turardi. G'ururi baland yigit bu ahvolga qanday chidash haqida o'ylaydi. Doim nimadir qilmoqchi bo'lsa, o'z kuchi bilan qilishga uringani uchun bu voqea unga qattiq ta'sir qildi. Lekin qiziqqonligi, vaziyatga aql bilan yondashish o'rniga doim g'azab bilan ish qilishi shu joyida unga pand berdi. Uzoq asabiylashish, stress holatidan keyin o'zini derazadan pastga tashladi va o'ldi. G'azab – insonning ichidagi eng katta dushman. Har doim o'ylamay ish qilishga undaydi, oson yechim topishga targ'ib qiladi.

Rustamda ham xuddi shunday bo'ldi. U ham o'zi bilan jangda yutqazdi. O'z o'limiga sababchi bo'ldi. Doim nohaqlik uchun kurashgan, haqiqat uchun hamma narsaga qarshi chiqqan odamning o'zi katta nohaqlik (korrupsiya) qurboni bo'ldi. O'zi bilmagan, o'zi kutmagan holda sodir bo'ldi bu ishlar.

G'azablanish – obyektiv tarzida kechadigan, shaxs uchun g'oyat muhim ehtiyojni qondirish yo'lida to'siqlarni yengib chiqadigan salbiy xissiy holatdir.⁶³

⁶³ Э. Ғозиев

УМУМИЙ ПСИХОЛОГИЯ

Психология мутахассислиги учун дарслик

Тошкент

«Университет» 2008



Bir qarashda u juda to'g'ri ish qildi. Uning ustidan, uning ruxsatisiz ish qilishdi. O'zi olmoqchi bo'lgan uyni pora yo'li bilan olib berishdi va bunga chiday olmadi. Erkaklik g'ururi sabab o'zini o'ldirdi va hamma muammolardan qutildi. Lekin bu o'rinda boshqacha yo'l tutish ham mumkin edimi?

O'lim – bu o'zi uchungina yechim edi xolos. Chunki uning otasi (garchi qamoqda bo'lsa ham), onasi, akasi, jiyanlari va Shahnoza bor edi. O'zi uchun bo'lmasa ham, ular uchun yashashi kerak edi. Ona uchun eng og'ir ish – o'z farzandini qabrga qo'yish. Bu narsa onani qaritmasdan o'ldiradigan holatdir. Lekin Rustam eng oson yo'lni, o'limni tanladi. Bu vaziyatda o'zi muammolardan qutilgan bo'lishi mumkin, lekin onasini, volidasini, zor yig'latib ketdi. O'limi bilan hammasi baham topa qolsa qani edi. Tergov jarayonida hatto Shahnozadan ham gumon qilib, erining o'limiga sababchi sifatida qarashdi. Rustam o'ldi, onasi faryod chemoqda, Shahnoza esa uning o'limida gumondorlardan biri bo'lib qoldi. Bu – Rustam uchun yechim, Onasi hamda Shahnoza uchun fojea bo'ldi.

Tom ma'noda Rustam o'z harakteriga mos ish tutdi. Doim o'zining aytganini qiladigan, nohaqlik bo'lsa kuch ishlatib bo'lsada unga qarshi chiqadigan inson uchun yechim shu edi. Oxir oqibat bu kuchni o'ziga nisbatan ham ishlatdi va boqiy dunyoga yo'l oldi. Ammo yana o'sha ma'yus ona, o'zini bir umr kechira olmaydigan Shahnoza yig'lab qolishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ў.Ҳошимов. Тушда кечган умрлар (роман). Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент-2002.
2. <https://yuz.uz/uz/news/nasrdagi-shoir-yoxud-ruhiyat-manzillari>
3. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. - Toshkent: Akademnashr, 2018. - 480 b.
4. Э.Ғозиев. Умумий психология. Психология мутахассислиги учун дарслик. Тошкент – «Университет», 2008.
5. Internet manbalari.